O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING

QARORI

220100, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko‘chasi, 29-uy, tel: (62) 223-00-42, fax: 223-00-22

2024 - yil 29 - mart 129-12-0-Q/24 Xorazm viloyati hokimligi

2024-yil viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-aprelda “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Qaror qilaman:

1. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov) va viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) hamda “Xorazm bozorlari va savdo komplekslari” viloyat uyushmasi (N.Ro‘zmetova) takliflari asosida “Bozorlar va savdo komplekslari” ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi, ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyatlari bilan birgalikda:

bozorlar va savdo komplekslaridan tushadigan yig‘imlarning belgilangan tartibda to‘liq undirilishi;

bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyatlari tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar, bino-inshoot va boshqa mol-mulklar hamda bozor infratuzilmasidan foydalanganlik uchun ijara

to‘lovlari yig‘im miqdorlarini ko‘paytirish evaziga tushadigan tushumlarni O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda mahalliy byudjetga yo‘naltirilishini ta’minlasinlar.

3. Tuman (shahar)lar hokimliklari o‘z hududlaridagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyatlari tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar, bino-inshoot va boshqa mol-mulklar hamda bozor infratuzilmasidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarining to‘liq undirilishi va ulardan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirsinlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustda “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-sonli qarori asosida ish tashkil qilsinlar.

4. “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalarida (S.Raximberganova) mazkur qaror e’lon qilinsin.

5. Viloyat hokimining 2023-yil 5-apreldagi 110-12-0-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Viloyat hokimining matbuot kotibi - axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O.Adambayev) mazkur qarorning viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Bozorlar va savdo komplekslarining rahbarlari belgilangan bir martalik yig‘im, ijara to‘lovi miqdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar ro‘yxati va qiymatining bozorlar va savdo komplekslariga kiriladigan barcha joylarga ilib qo‘yilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Achilov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **J.Raximov**

Xorazm viloyat hokimining
2024-yil 29-martdagi
129-12-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlari

I. Bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning miqdorlari (so‘mda)

T/r.	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	Urganch shahri “Markaziy dehqon bozori” va “Cholish dehqon bozori”	Urganch shahri “Qibla QMSK” si va Urganch, Hazorasp, Xiva hamda Gurlan tumanlari markazidagi bozorlar	Tuproqqal’a va qolgan tumanlar hamda hududlarda
1.	**Mahsulotlarni savdo o‘rinlarida sotish:**				
1.1.	**Mevalar:** **Ho‘l mevalar:** olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo‘ri, gilos, ko‘k va qizil sulton, o‘rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h.k.	1 o‘rin/kunga	10 000	9 000	8 000
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k.) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho‘l mevalar.	1 o‘rin/kunga	15 000	13 000	12 000
	Quruq mevalar, yong‘oqlar: turshak, bargak, mayiz, yong‘oq, yeryong‘oq, bodom, pistalar, sho‘rdanak va h.k.	1 o‘rin/kunga	14 000	13 000	13 000

	Mahalliy turshak (o‘rik qoqi)	1 o‘rin/kunga	9 000	9 000	8 000
1.2.	**Sabzavotlar:** kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg‘om, bulg‘or qalampiri, baklajon, patison, pomidor, bodring (shu jumladan, issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor va bodring) va h.k. hamda pishirilgan jo‘xori	1 o‘rin/kunga	9 000	9 000	8 000
1.3.	**Poliz mahsulotlari:** handalak, qovun , tarvuz, qovoq (rastada sotganda)	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000	8 000
	Poliz mahsulotlari (rastalardan tashqarida maxsus ajratilgan joylarda) sotganda: handalak, qovun , tarvuz, qovoq (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	15 000	12 000	12 000
1.4.	**Don mahsulotlari:** guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug‘doy, so‘li, arpa va h.k.	1 o‘rin/kunga	12 000	12 000	10 000
1.5.	**Dukkakli mahsulotlar:** mosh, loviya, no‘xat va h.k.	1 o‘rin/kunga	10 000	10 000	8 000
1.6.	**Sut mahsulotlari:** sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog‘i, suzma va h.k.	1 o‘rin/kunga	10 000	10 000	8 000
1.7.	**Tuzlamalar:** karam, bodring, pomidor va h.k.	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000	8 000

1.8.	**Ziravor va dorivorlar** (zira, murch, qalampir va h.k) hamda asal	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000	8 000
1.9.	**Ko‘katlar** (shu jumladan, issiqxonada yetishtirilganlar)	1 o‘rin/kunga	9 000	8 000	8 000
1.10.	**Tuxum**	1 o‘rin/kunga	9 000	9 000	8 000
1.11.	**Gul va ko‘chatlar (6 m.kv. metrgacha)**	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000	8 000
1.12.	**Non mahsulotlari** (obi non, patir va h.k)	1 o‘rin/kunga	10 000	9 000	8 000
1.13.	**Uyda tayyorlangan konservalangan, pazandalik va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari**	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000	8 000
1.14.	**Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va salqin ichimliklar (Uy tegirmonida tayyorlangan un mahsulotlari)**	1 o‘rin/kunga	14 000	13 000	9 000
1.15.	**Milliy taomlar**	1 o‘rin/kunga	14 000	13 000	10 000
1.16.	**Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilari**	1 o‘rin/kunga	9 000	8 000	7 000
1.17.	**Supurgi**	1 o‘rin/kunga	9 000	9 000	8 000
1.18.	**Tirik baliq**	1 o‘rin/kunga	25 000	25 000	20 000
1.19.	**Dudlangan baliq**	1 o‘rin/kunga	10 000	8 000	7 000
1.20.	**Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari (6 kv. metrgacha)**	1 o‘rin/kunga	8 000	8 000	8 000
2.	**Go‘sht mahsulotlari:** mol, qo‘y, cho‘chqa, parranda go‘shti, jigar, dumba va h.k.	1 o‘rin/kunga	40 000	36 000	35 000
3.	**Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish:**				

	yengil avtomashinalardan	1 mashina	30 000	25 000	20 000
	yuk avtomashinalaridan	1 mashina	50 000	45 000	40 000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan	1 машина	60 000	50 000	45 000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	16 000	16 000	14 000
4.	**Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar sotish:** shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, bug‘doy va sholi somon, makkajo‘xori poyasi va h.k.				
	Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, bug‘doy va sholi somon, makkajo‘xori poyasi va h.k.	1 mashina	35 000	35 000	28 000
	yengil mashina va aravasidan, ot va eshak aravalardan pichan, bug‘doy va sholi somon, makkajo‘xori poyasi va h.k	1 arava	20 000	15 000	14 000
5.	**Qurilish materiallarini sotish:**				
5.1.	**Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir (yengil) va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish:**				
	6 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	10 000	10 000	9 000
	6 kv. metrdan – 15 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	12 000	12 000	10 000
	15 kv. metrdan – 30 kv. metrgacha****	1 o‘rin/kunga	15 000	15 000	12 000
	30 kv. metrdan oshgan har bir kv. metriga	so‘m	1 000	900	800

5.2.	**Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda mahalliy (terak, xoda, yekan, qamish, chiptalar va hakozo) materiallarini sotish**				
	6 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	5 000	5 000	5 000
	6 kv. metrdan – 15 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	6 000	6 000	6 000
	15 kv. metrdan – 30 kv. metrgacha****	1 o‘rin/kunga	8 000	8 000	6 000
	30 kv. metrdan oshgan har bir kv. metriga	so‘m	250	250	250
5.3.	Kichik va yengil o‘lchamdagi qurilish materiallari (mayda o‘lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lyustra, svetilniklar va h.k.) sotish (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	9 000	9 000	9 000
6.	**Ilgari foydalanishda bo‘lgan** buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish:				
	Savdo shoxobchalaridan tashqarida sotish	1 o‘rin/1 kb metr kunga	5 000	5 000	4 000
	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar (1,6 p/m bir o‘rin)	1 o‘rin/kunga	14 000	14 000	12 000
	Uy-ro‘zg‘or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar (1,6 p/m bir o‘rin)	1 o‘rin/kunga	10 000	10 000	9 000
7.	**Avtotransport vositalarini sotish:**				
	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar	1 dona	50 000	50 000	50 000
	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari	1 dona	60 000	60 000	60 000
	Mototsikl, motoreller va mopedlar	1 dona	12 000	12 000	12 000
	velosipedlar	1 dona	9 000	8 000	8 000

	Haftaning yakshanba kunidan tashqari kunlari avtotransport vositalarini sotish uchun belgilangan patta to‘lovlari 50 % miqdorida undiriladi	1 dona	50%	50%	50%
8.	**Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun**				
8.1.	**Ot, tuya**	1 bosh	30 000	30 000	30 000
	toy,bo‘taloq, eshak	1 bosh	20 000	20 000	20 000
8.2.	**Yirik shoxli qoramol:**				
	ho‘kiz	1 bosh	40 000	40 000	35 000
	sigir, sigir buzog‘i bilan	1 bosh	40 000	40 000	35 000
	buzoq (ho‘kizi)	1 bosh	25 000	25 000	20 000
	buzoq (g‘unojini)	1 bosh	20 000	20 000	18 000
8.3.	**Mayda shoxli qoramol:**				
	qo‘chqor	1 bosh	20 000	20 000	15 000
	qo‘y, echki (qo‘y qo‘zisi bilan, echki ulog‘i bilan va h.k.)	1 bosh	15 000	15 000	12 000
	qo‘zi, uloq	1 bosh	10 000	10 000	8 000
8.4.	**Cho‘chqalar,** cho‘chqa bolalari	1 bosh	13 000	13 000	13 000
9.	**Uy parrandalari:** kurka, g‘oz	1 bosh	4 000	4 000	4 000
	tovuq, o‘rdak, quyon	1 bosh	4 000	4 000	4 000
	tovuq, kurka, o‘rdak, g‘oz jo‘jalari va quyon bolalari	10 bosh	4 000	4 000	4 000
10.	**Itlar va mushuklar**	1 o‘rin/kunga	8 000	8 000	7 000
11.	**Manzarali qushlar va baliqlar**	1 o‘rin/kunga	10 000	9 000	8 000

12.	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar**	1 o‘rin/kunga	9 000	9 000	8 000
13.	**Poyabzal ta’mirlash xizmati**	1 o‘rin/kunga	7 000	6 000	6 000

1.Bozorlar va savdo komplekslari uchun ilovada belgilangan yig‘imlar miqdorlarida QQS (qo‘shimcha qiymat solig‘i) qo‘shib hisoblangan.

Xorazm viloyat hokimining
2024-yil 29-martdagi
129-12-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

II. Bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarining miqdorlari (so‘mda)

T/r.	Ko‘rsatiladigan xizmatlar turi	O‘lchov birligi	Urganch shahri “Markaziy dehqon bozori”	Urganch va Xiva shahri, Urganch, Hazorasp, Xiva va Gurlan tumanlari markazidagi bozorlar va savdo komplekslari**	“Qibla QMSK” MCHJ, “Xiva QMSK” MCHJ va “Ming botmon QMSK” MCHJ	Tuproqqal’a va qolgan tumanlar hamda hududlarda ***
1.	**Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino, inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi**					
	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m/oyiga	40 000	35 000	32 000	25 000
	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m/oyiga	38 000	30 000	15 000	19 000
	Umumiy ovqatlanish	1 kv.m/oyiga	38 000	28 000	12 000	20 000
	Maishiy xizmat ko‘rsatish	1 kv.m/oyiga	38 000	28 000	15 000	15 000
	Boshqa turlar (ombor, ofis, ishlab chiqarish sexlari, paynet, vaqtinchalik mavsumiy ayvonlarda savdo qilish va h.k.)	1 kv.m/oyiga	25 000	23 000	18 000	20 000
	Barcha turdagi dorixonalar	1 kv.m/oyiga	40 000	30 000	15 000	20 000
	Ikkichi va undan yuqori qavatlarda joylashgan savdo do‘konlaridan yuqoridagi mahsulot va xizmat turlari bo‘yicha belgilangan yig‘imlar miqdorining 50 foizi miqdorida undiriladi	1 kv.m/oyiga	50%	50%	50%	50%
2.	**Inventarlarni ijaraga berish:**					

2.1.	**Tosh-tarozilar uchun**	1 kunga	4 000	4 000	4 000	4 000
2.2.	**Katta yuk tortish tarozilari uchun**					
	150 kg.gcha	1 kunga	5 000	5 000	5 000	4 000
	150 kg.dan 1500 kg.gacha	1 kunga	15 000	15 000	15 000	12 000
2.3.	**Savdo jihozlari uchun** (bolta, taxtakach, pichoq, o‘rindiq, voronka, patnis, savat va h.k.) (butun to‘plam uchun) (to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	2 000	2 000	2 000	2 000
2.4.	**Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun** (xalat, etak, yenglik) (butun to‘plam uchun) (to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	2 000	2 000	2 000	2 000
2.5.	**Mahsulotlar uchun brezent berish**	1 kunga	4 000	4 000	4 000	4 000
2.6.	**Aravachalar uchun (bozor balansidagilardan)**	1 kunga	10 000	10 000	10 000	10 000
	Xususiy aravachalar uchun	1 kunga	6 000	6 000	6 000	6 000
2.7.	**Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun (1 kv. metr)**	1 kunga	5 000	5 000	5 000	5 000
3.	**Ko‘rsatiladigan xizmat turlari:**					
3.1.	**Qishloq xo‘jaligi va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:**					
	sovutkichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	5 000	5 000	5 000	5 000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	3 000	3 000	2 000	2 000
	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o‘rni hisobidan)	1 kunga	4 000	4 000	4 000	4 000
3.2.	**Buyumlarni omborlarda saqlash (qo‘riqlash):**					

	Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o‘lchamdagi joy uchun)	1 kunga	3 000	3 000	3 000	3 000
	Qurilish materiallarini qo‘riqlash xizmati (savdo maydonida yoki rastasida to‘lanadigan ijara to‘lovidan tashqari)	1 kv metr kuniga	50	50	50	25
	Savdo komplekslari hududida qurilish materiallarini vaqtinchalik saqlash xizmati	1 kv metr kuniga	0	0	50	0
3.3.	**Mahsulotlarni tarozida tortish:**					
	katta yuk tarozida	1 marta tortish	4 000	4 000	4 000	4 000
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	5 000	5 000	5 000	5 000
3.4.	**Avtotarozilardan foydalanish:**					
	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo‘lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan:					
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	6 000	6 000	6 000	6 000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	6 000	6 000	6 000	6 000
	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnagacha bo‘lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:					
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	5 000	4 000	4 000	4 000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	4 000	4 000	4 000	4 000
	yengil avtomashinalardan:					
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	4 000	4 000	4 000	4 000

	yuksiz	1 marta o‘lchash	4 000	4 000	4 000	4 000
	tirkamali yengil avtomashinalardan:					
	yuk bilan	1 marta	5 000	5 000	5 000	5 000
	yuksiz	1 marta	4 000	4 000	4 000	4 000
3.5.	**Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)**	1 kunga	10 000	10 000	10 000	8 000
3.6.	**Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:**					
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	4 000	4 000	4 000	4 000
	yuk avtomashinalari uchun	1 soatga	5 000	5 000	5 000	5 000
3.7.	**Hojatxona xizmatidan foydalanish**	1 marta	2 000	2 000	2 000	2 000
3.8.	**Telefondan foydalanish**	1 marta	2 000	2 000	2 000	2 000
3.9.	**Radiouzel orqali e’lon berish**	3 marta takror	3 000	3 000	3 000	3 000
3.10.	**Transport vositalarini yuk ortish va yuk tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari hududiga kirish** (qishloq xo‘jalik mahsulotlarini olib kirish bundan mutasno):					
	yengil avtomashinalar uchun	1 marta	4 000	4 000	4 000	3 000
	yuk avtomashinalar uchun	1 marta	6 000	6 000	6 000	5 000

3.11.	**Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar (asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo‘laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo‘g‘inlari, umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari) *** **	1 kv. metr uchun	28 000	25 000	25 000	20 000
	Ikkinchi va undan yuqori qavatlar va joylashgan savdo do‘konlaridan yuqoridagi mahsulot va xizmat turlari bo‘yicha belgilangan yig‘imlar miqdorining 50 foizi miqdorida undiriladi	1 kv. metr uchun	50%	50%	50%	50%

* O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi PQ-1326-sonli “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar ro‘yxati va qiymati tumanlar va shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko‘rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida yoki shahar (tuman)lar hokimlarining qarorlarida ko‘rsatilgan egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib, bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati bilan bino va inshootlar mulkdorlari o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq haq to‘lanadi. Bunda maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish xizmatlari uchun bino va inshootlar mulkdorlari tomonidan mazkur turdagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlarga qo‘shimcha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

** “Qibla KMSK” MCHJ, Hazorasp tumani markazidagi “Ming botmon QMSK” MCHJ hamda Xiva tumanidagi “Xiva QMSK” MCHJlardan tashqari.

*** Haftada bir va ikki kun bozor bo‘ladigan bozorlarda (tuman markazida joylashgan kundalik bozorlar bundan mustasno) II bobdagi “Bozorlar va savdo komplekslaridagi inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari” ning 1 va 3.11-bandlarida belgilangan miqdorlarning 50 foizini to‘laydilar.

**** 30 metr kvadratdan oshgan har bir metr kvadratiga belgilangan miqdorda undiriladi.

Izoh:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o‘rni) o‘lchami 1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o‘lchamdan ortiq o‘rin uchun qo‘shimcha ravishda har bir savdo o‘rni uchun belgilangan to‘lov miqdorida joy haqi undiriladi.

2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’moli mollari aralash holda sotilganda, to‘lov sotiladigan mahsulot turlari bo‘yicha belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha undiriladi.

3. Bozorlar va savdo komplekslari uchun ilovada belgilangan yig‘imlar miqdorlarida QQS (qo‘shimcha qiymat solig‘i) qo‘shib hisoblangan.